Yumshoq bug’doyning “Pahlavon” navi

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Genetika va o’simliklar eksperimental biologiyasi instituti olimlari tomonidan yumshoq bug’doyning “Pahlavon” navi yuqori avlodlarda yakka va oilaviy tanlov yo’li bilan yaratilgan. Nav 2014-yilda Toshkent va Farg’ona viloyatlariga 2015-yilda Sirdaryo viloyatiga istiqbolli nav sifatida Davlat reestriga kiritilgan. 2020-yildan respublikaning Sirdaryo, Jizzax, Samarqand va Farg’ona viloyatlariga rayonlashtirilgan.

“Pahlavon” navi 2021-yilda Sidaryo viloyati Bayovut tumani urug’chilik fermer xo’jaliklarida ko’paytirilib, gektariga o’rtacha 55 sentnerdan hosil olindi va 280 tonna superelita urug’i tayyorlandi. Tayyorlangan urug’lik elita urug’chilik xo’jaliklarida 2022-yil hosili uchun ekildi.

Institutning Pskent tajriba stantsiyasida “Pahlavon” navining birinchi yil urug’ ko’paytirish ko’chatzori tashkil etilib, 26 tonna orginal va 3,6 tonna birinchi yil ko’paytirish urug’i tayyorlandi. Tayyorlangan urug’likning 26 tonna orginal (2 yil ko’paytirish) urug’lari Farg’ona viloyati Bog’dod tumani urug’chilik fermer xo’jaliklariga realizatsiya qilindi.

“Pahlavon” navi kamsuvlik va sho’rga chidamli, zang kasalliklariga esa o’rtacha chidamli. Bu navning boshqa navlardan farqi shundaki, u mahalliy sharoitga moslashgan, o’rta pishar va o’rta bo’yli (100-110sm), yotib qolishga chidamli, donining non bo’lish sifati yuqoriligi bilan bir vaqtda somonining yumshoqligi va sifatining yuqoriligi chorvachilikda yem-xashak sifatida foydalanish imkoniyatini beradi.